

## Международная научно-практическая конференция

tibbiyot OTMlarining yuqori bosqich talabalari va OShlarni o'qitishda deontologik prinsiplar haqida fikrlash, ushbu o'quv jarayoni juda ko'p xususiyatlarni o'z ichiga olganligini va OShlarni tayyorlashda ularni hisobga olish kerakligini ta'kidlash lozimligi, hamda ularni tibbiyot taraqqiyotiga mos ravishda kasbiy saviyalarini muntazam oshirishdir.

### OILAVIY SHIFOKORINING KASBIY FAOLIYATIDA TIBBIY ETIKA

Asrорор A.A., Aminjonova Ch.A.

Buxoro davlat tibbiyot instituti,  
Buxoro, O'zbekiston

Tibbiy odob-axloq oilaviy shifokori (OSh) kasbiy faoliyatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki bu mutaxassislarining faoliyati bemorlarining butun oila a'zolarining sog'lig'ini, shuningdek unga biriktirilgan hudud tomonidan xizmat ko'rsatiladigan aholini muhofaza qilish bilan bog'liq.

Talabalarni ushbu mutaxassislikka izlash va jalg qilishning ko'plab usullari orasida eng samaralisi bu ularning kelajakdagi tibbiyot faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish (eng yangi jihozlangan zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiyot muassasalarini qurish, ularni yangi zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlash), omma o'rtasida OSh kasbini ommaviy axborot vositalari tomonidan keng targ'ib qilib, o'rta umumta'lum maktablarini bitiruvchilari va tibbiyot olyi o'quv yurtlari talabalari o'rtasida xalq orasida o'z hurmatiga ega bo'lgan, tajribali, obro'li, yuqori professional mutaxassislarini jalg qilish bilan birga ularni moddiy rag'batlantirish kabi tadbirlarni ko'proq o'tkazish zarur.

Shumi ta'kidlash joizki, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 1985 yil Braziliyada o'tkazilgan tug'ruqni olib borish bo'yicha mintaqalararo konferensiyasida quyidagilarni tavsiya qiladi:

- sog'gom tug'ilgan chaqaloq onasi bilan qolishi kerak;
- yangi tug'ilgan chaqaloqni kechiktirmasdan ko'krak suti bilan ovqatlantirilishini rag'batlantirish zarur;
- Kesarcha jarrohlik usuli bilan tug'dirishlar soni 10-15 foizdan oshganligini hech qanday oqlash mumkin emas;
- tibbiyot xodimlariga qulaylik yaratish maqsadida tug'ruqni oldindan majburlamaslik kerak;
- tug'ruq paytida og'riq qoldiruvchi va og'riqsizlantiruvchi vositalardan foydalanishdan saqlaning.

Bola huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan bir xil muhim bioetika vazifasi - bu so'nggi yillarda davriy nashrlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan reaksiyalar va asoratlar to'g'risida noto'g'ri talqinlar tufayli, bolalarning sog'lig'ini emlash orqali oldini

olish mumkin bo'lgan yuqumli kasalliklardan himoya qilishlariga qaramasdan diniy sabablarga ko'ra ba'zi ota-onalar profilaktik emlashlardan bosh tortadilar. Tibbiy xodimlarning (pediatr, neonotolog, shuningdek OSh) vazifasi bunday asossiz qarorning salbiy oqibatlarini oqilona va aniq tushuntirishdir. Shu munosabat bilan ota-onalar bolaning farovonligi va sog'lig'i uchun asosiy mas'ul ekanligini muloyimlik bilan eslatish kerak. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida, agar ota-onaning tibbiy yordamdan bosh tortishi bolaning hayotiga tahdid soladigan bo'lsa, u holda mavjud qonunchilik va huquqiy hujjatlar asosida bu masala bemor foydasiga hal qilinadi.

Ota-onalarning profilaktik emlashlardan bosh tortishi oldini olish mumkin bo'lgan yuqumli kasalliklar (difteriya, qizamiq, ko'k yo'tal, sil kasalligi, poliomielit) epidemiyasi xavfini ko'payishi, natijada ko'pincha nogironlik va jiddiy iqtisodiy zararlar kabi qayg'uli natijalarga olib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Shunday qilib, OSh malakasini oshirish jarayonida bilim va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish bilan bir qatorda axloqiy savodxonlik darajasi muttasil o'sib borishi, bolaga va uning qarindoshlari nisbatan insoniy munosabatlarni shakllantirishdir. Oliy o'quv yurtida diplomgacha va diplomdan keyingi mutaxassislikka tayyorlash jarayonida "OShlar uchun bioetika va tibbiy deontologiya bo'yicha vazifalar" o'quv dasturlari shifokorga bemor va uning qarindoshlari, hamkasblari bilan to'g'ri muloqot taktikasini tanlashda, ulardan keyingi pedagogik jarayonda foydalanishning maqsadga muvofiqligi bu axloqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

### REVMATOID ARTRITKASALLIGIDA MUShAKLARNI RAG'BATLANTIRUVChI TERAPIYANING AXAMIYATI

Axmedov I.A.

Samarqand davlat tibbiyot instituti, Samarqand,  
O'zbekiston

**Maqsad:** Revmatoid artrit (RA) bilan og'igan bemorlarda mushaklarning kuchsizligi bo'lganda L-karnitin dori vositasini samaradorligini baholash.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Biz tadqiqotimizda RA bilan kasallangan 106 nafar, 92 nafari (86,8%) ayollar, 14 nafari (13,2%) erkak bemorlarni tekshiruvdan utkazdik. Bemorlarning o'rtaча yoshi  $42,1 \pm 1,3$  yil, kasallik davomiyligi  $9,3 \pm 6,2$  yil. Mushaklar kuchini va ish qobiliyatini aniqlash uchun SARC-F so'rovnomasidan foydalanildi. Shuningdek davolash muolajalariga standart davo bilan birgalikda mushaklarga rag'batlantiruvchi terapiya sifatida asosiy guruhga L-karnitina dori vositasi qushimcha ravishda tavsiya